



DARYOLARNI TO`YINISH MANBALARI BO`YICHA TASNIFLASH

**Abdunazarov Lutfillo Mamanovich¹,
Axmedova Farzonabegim Saydullo qizi²**

¹ Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsent

² Qo`qon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590451>



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma`qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO`ZLAR

Daryo, havza, yomg`ir

ANNOTATSIYA

Bilamizki daryolarni to`yinish manbalarining asosi bu atmosfera yog`ingarchiligidir.

Yomg`ir, qor asosiy manba bo`lib ularning tasnifi turlicha va quydagicha bo`ladi. Daryo oqimi yomg`ir va tog`lardan erigan qorlar hisobiga paydo bo`ladi. Albatta ikki holatda ham suvning bir qismi yer ostishi sizib ketadi. Bir qismi bug`lanib ketadi. Qolgan qismi esa irmoqlar hosil bo`lishida faol ishtirok etadi. Qachonki yomg`ir yog`ish, qor yoki muzlarning erish jadalligi, suning yerostiga sizib ketishi va bug`lanish jadalligidan tez va katta bo`lsagina irmoqlar oqim hosil qiladi irmoqlar esa birlashib daryolar paydo bo`ladi.

Yuqoridag aytib o`tgan jadalligimiz oshgandan so`ng oqim yuza oqim yoki yon bag`rlar oqimi deyiladi. Albatta boshlanishiga bunday oqimlar juda kichik jilg`alar ko`rinishida bo`ladi.

Umuman olib qaraganda daryolar asosiy ikki o`imlardan tashkil topadi. Bular yer yuzidagi oqimlar hamda yer ostiga sizib ketgan yer osti oqimlaridan tashkil topadi chunki ular ham borib daryoga qo`shiladi. Albatta manbalarining ko`rinishida daryo oqimlari paydo bo`lishi oddiy sodda bo`lishi

mumkin. Lekin aslida daryo oqimlarining paydo bo`lishi murakkab tabiiy jarayon hisoblanadi. Daryolarning paydo bolishga tabiiy-geografik omillar juda muhim tasir etadi. Bular: havzalarning geografik joylashgan o`rinlari, geologig tuzilishi va iqlimning sharoiti, tuproq sharoitlari, relefi, gidrografik sharoiti (ko`l, muzlik, botqoqlik) va ho kazolardir.

Oqimlarining hosil bo`lishiga tepada aytilgan tabiiy geografik omillar majmui bilan birga yonma - yon yuradigan innsoning daryo havzalaridagi xo`jalik faoliyatlari ham katta tasir etadi. Sanab o`tilgan omillar faqat hosil b`lishi va umumiy hajmiga tasir etibgina qolmasdan, bular daryo oqimining yil davomida hamda hududlarga bo`linishiga ham o`z tasirini ko`rsatadilar.

U yoki bu omilni alohida tekshirish uning dayroga bo`lgan tasirini aniqlash anchagina murakkablikni tashkil etadi. Chunki bu omillarning hammasi birgalikda harakat qiladilar. Ko`p hollarda esa ular o`zaro bir biri bilan bog`langandir.



Iqlimiy omillar ta'siri: Bilamizki iqlimiy omillarga atmosfera yog'ingarchiliklari, havo haroratlari, bug'lanish, shamol va havo namligi kabilar tushuniladi. Aynan shu omillardan qaysi biri daryoga qo'shiladigan oqimlarga hal etovchi hamda bevosita ta'sir qilishini bilish uchun daryo havzasining suv muvozanati tenglamasiga nazar solamiz. Bilamizki u quydagicha ifodalanadi.

$$X_o = Y_o + Z_o \text{ yoki } Y_o = X_o - Z_o$$

Bu yerda X_o havzaga yog'adigan o'rtacha ko'p yillik yog'in miqdori. Z_o bu havzada bo'ladigan o'rtacha yillik bug'lanish miqdori. Y_o umumiy daryo oqimining o'rtacha ko'p yillik miqdori. Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki daryo oqimida ta'sir etuvchi asosiy omil bu atmosfera yog'ingarchiligi va bug'lanishdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak daryo va oqimlarining oz yoki ko'p bo'lishi atmosfera yog'ingarchiligi va bug'lanishga bog'liqdir. Albatta tabiiy holatda qancha ko'p yomg'ir yog'adigan bo'lsa shuncha suv havzasi ham ko'payadi. Ular orasidagi bog'liklikni analitik ko'rinishida ifodalashimiz mumkin bo'ladi.

$$Y_o = f(X_o)$$

Ammo bu aloqadorlik doim ham kuzatilavermaydi. Chunki oqimning miqdoriga yog'ingarchilikning ko'p yoki oz bo'lishi ta'sir korsatib qolmasdan balki uning yil davomida taqsimlanish xarakteri ham muhim o'rin tutgan.

"Daryolarning to'yinishida ishtirok etuvchi manbalardan har birining yillik oqimga qo'shgan hissasini miqdoriy baholash

uslub hali takomiliga yetmagan. Bu sohadagi dastlabki ishlar 40-yillarda M.I.Lvovich tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u daryolarning to'yinish manbalari bo'yicha tasnifini ishlab chiqdi. Bu ish 70-yillarda ancha qiyomiga yetkazildi. Har ikki bosqichda ham olim daryolar suv rejimini tahliliga asoslandi va natijada Yer yuzasidagi daryolarni 38 turga bo'ldi. Shundan 20 ta turi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hududida uchraydi. Har bir to'yinish manbai-qor qoplami, yomg'ir suvlari va grunt suvlarini miqdoriy baholashda M.I.Lvovich qu-yi-dagi oraliqlarni qabul qildi: 80 foizdan ko'p, 50-80 va 50 foizdan kam".

Har bir daryolar ularga quyiluvchi irmoqlardan tashkil topar ekan demak bizga irmoqli oqimlar juda muhim ahamiyatga egadir. Irmoqlarning paydo bo'lishi atmosfera yog'ingarchiligiga bog'lik. Atmosfera yog'ingarchiligi esa, tabiat suv havzalari suvlarning bug'lanishiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda yog'ingarchilik, muz va qor erishdidagi oqimlar irmoqlarga, irmoqlar daryolarga, daryolar dengizga, dengizlar esa okeanlarni to'yinishiga ham bir ulkan omil hisoblanadi. Hayot davom etadi cheksizlik hammasi bir yo'ldan yurib borar ekan abatta aylanib o'z yo'li boshiga keladi. Yo'l tugamaydi bu hayot va tabiat qonunidir. Ushbu maftunkor, mo'jizaviy tabiatni asrab avaylash har birimizning insoning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.K.Soliyev, S.T. Azimboyev „ Gidrologiya va Gidrometriya” Toshkent „Yangi asr avlodi” 2006
2. 2.B.T. Toshmugammedovc „ Umumiy Geologiya” Noshir. nToshkent -2011



3. 3.A.R.Rustamov, F.X. Hikmatov, D.P Aytboev *Gidrologiya asoslari*. Toshkent. „Universitet”2003
4. 4.B.T.Toshmuhammedov „Umumiy geologiya” „Noshir” Toshkent – 2011
5. 5. Hikmatov F.H „Водная эрозия” – Т.: „Fan texnologiya”, 2011
6. INTERNET MANBALARI:
7. 1. <http://hozir.org/oquv-materiallari-ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirlig-v2.html?page=45>